

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**



**ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI**  
**FANINING O'QUV DASTURII**

**Bilim sohasi:** 200000 - San`at va gumanitar soha  
**Ta`lim sohasi:** 220000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)  
**Ta`lim yo`nalishi:** 70220301 - Tarix (yo`nalish va faoliyat turi bo`yicha)

**Termiz – 2024**

Fan/modul kodi ITMM1004		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	72	108	180	

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** - magistrlarda ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va unda nazariya va amaliyot birligiga rioya qilish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fan magistrnlarni ilmiy izlanishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi, ularda magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash, uni tayyorlash va talab darajasida tayyorlashga ko'maklashishni ko'zda tutadi.

**Fanning vazifalari** - Ilmiy tadqiqot ishini tayorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish; ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning echimini topish yo'llarini izlash texnologiyasini; axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati; ilmiy ish ma'nosini tushunishning ahamiyati; ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o'rgatishdan iborat.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

**Ilm-fan tadqiqot faoliyati sohasi sifatida.** Ilm-fanning ta'rifi. Ilm-fanning o'zaro bog'liq xususiyatli belgilari.

**Ilmning maqsadi, vazifalari va funksiyalari.** Fanlarning tasnifi. Fanning tashkiliy strukturasi.

**Ilmiy tadqiqot va uning metodologiyasi.** Metodologik fikrlash va uslubiy aniqlik tushunchalari. «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

## **2-mavzu. TADQIQOTCHI FAOLIYATI VA UNGA QO'YILADIGAN MALAKAVIY TALABLAR**

**Ilmiy ish sifati. Kasbiy malaka tushunchasi. Kasbiy malaka uchun zarur bo'lgan sifat va xislatlar.** Ilmiy tadqiqot motivasiyasi. Kasbiy malakaning ma'naviy-ruhiy asoslari. Ilmiy maktab va uning an'analari.

**Tadqiqotda ketma-ketlik va mantiqiy izchillik.** «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» tushunchasi. Tadqiqot texnologiyasi ilmiylik standartini ta'minlaydigan talablar tizimi sifatida. Tadqiqot texnologiyasiga oid asosiy talablar.

**Zehn tadqiqotchining intellektual quroli sifatida.** Zehn tushunchasi. Zehn kuchini o'stiradigan ruhiy-emosional omillar. Ishchanlik va tirishqoqlik izlanish samaradorligini oshiradigan ruhiy-energetik zaxira sifatida. Ilmiy mehnat gigienasi.

**Tadqiqot samaradorligi. Fanda mehnat samaradorligiga erishishni ob'ektiv va sub'ekti omillari.** Tadqiqot individual va jamoaviy ilmiy mehnat birligidir. Tadqiqotda ilmiy an'ana va vorislikni davom ettirish – ma'naviy va metodologik qonuniyat sifatida.

## **3-mavzu. IJOD VA ILMIY TADQIQOT BILISH FAOLIYATINING MAHSULI**

**Ijod ilmiy faoliyatni maqsadli tashkil etish omili.** Ijodning asosiy xossalari.

**Ilmiy ijodning amal qilish mexanizmlari.** Aqlning ijodiy faolligi imkoniyatlari. Ilohiy ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Daholikning tabiati. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

## **4-mavzu. ILMIY TADQIQOTNING NAMOYON BO'LISH JIHATLARI**

**Ilmiy tadqiqot namoyon bo'lishining asosiy jihatlari: erkinlik, yozma matn va uning og'zaki matndan farqi.** Ilmiy tadqiqotni ilmiy ish sifatida rasmiylashtirish metodikasi.

**Ilmiy tadqiqot natijalarini ifodalovchi tezis, maqola, monografiyalarni tayyorlashda bilimning ahamiyati va ularning taqdimoti.** Xalqaro jurnallarda maqolalar nashr qilishning zarurati va ahamiyati.

**Olimlarning ilmiy ishlariga iqtibos berishning ilmiy faoliyatdagi o'rni.** Plagiat (ko'chirmachilik) olim sha'niga isnod sifatida. Xalqaro ilmiy bazalarda makolalarni joylashtirishning zarurati. Kutubxonalarda ishlash amaliyoti: alfavit, sistemali va elektron kataloglar.

## **5-mavzu. ILMIY TADQIQOTNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI**

**Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari: individual ilmiy tadqiqot: (bakalavr bitiruv ishi, magistrlik va doktorlik dissertasiyasi, referat va maqolalar,**

kurs ishi, monografiya). Dissertasiyalar bilan ishlash amaliyoti. Avtoreferat matnini uchinchi shaxs nomidan tayyorlashning zarurati.

**Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotning o'ziga xos xususiyati;** buyurtma asosidagi hamkorlik faoliyati, fundamental, innovasion va amaliy tadqiqot ishlari hamkorlikdagi faoliyat mahsuli. Hamkorlikdagi maqola va monografiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

**Texnikaviy tadqiqot va uning tiplari.** Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot. Badiiy ijod ijtimoiy ongning maxsus shakli.

**Pedagogik faoliyat va ilmiy tadqiqotning uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati.** Improvizasiya pedagogik tadqiqotning ko'rinishi. Pedagogik ijodning xususiy ko'rinishi. Zamonaviy ilmiy tadqiqot konsepsiyalari.

## **6-mavzu. ILMIY TADQIQOTNING TIPLARI**

**Ilmiy tadqiqot tiplarining tasnifi:** fundamental tadqiqotlar va ularda voqelik hodisalari va qonunlari haqida yangi bilim olish imkoniyati. Amaliy tadqiqotlar va ularni moliyalashtirish imkoniyati. Tadqiqotchilik loyiha konstruktorlik ishlanmalari: (mutlaqo maxfiy tadqiqotlar). Innovasion tadqiqotlar. Yoshlarning fundamental, amaliy va innovasion loyihalari. Xalqaro jamg'armalarning ilmiy loyihalari va ularda ishtirok etishning ahamiyati. Nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy loyihalari.

**Fundamental, amaliy, innovasion, tadqiqot ishlanmalarining o'zaro aloqasi va farqi.** Fan va ishlab chiqarishning aloqadorligi.

**Ilmiy bilishning o'sish qonuniyatlari.** Fanning o'sish nuqtalari. Ilmiy tadqiqotda vorisiylik va novatorlik.

## **7-mavzu. ILMIY TADQIQOTDA MUAMMO VA MUAMMOLI VAZIYATNING O'ZARO TA'SIRI.**

**Muammo tushunchasi va uning mohiyati.** Muammo va metod uyg'unligi. Muammo va masala. Katta, muhim, ikkinchi darajali muammolar. Muammoning shakllari. Xususiy muammolar. Mavzuni tanlash muammoning to'g'ri yechimi ilmiy faoliyatning amaliy natijasining kafolati. Ilmiy muammolarning namoyon bo'lish usullari; predmetga doir va proseduraga doir muammolar.

**Dissertasiyani tayyorlashda bilimning ahamiyati.** (magistrlik dissertasiyasi misolida barcha muammo turlari tahlil qilinishi shart). Ilmiy muammolarning boshqa muammolardan farqlovchi asosiy belgilar. Muammoli vaziyat va uning ahamiyati.

**Muammo va ilmiy tadqiqot uyg'unligi.** Muammoni qo'yish va uning yechimini topishning asosiy bosqichlari.

## **8-mavzu. DALIL – ILMIY MUAMMONI YECHISH OMILI**

**Talqin qilish dalilning muhim unsuri.** Dalilning moddiy-texnik va metodik jihat. Empirik dalilning xossalari: kuzatish va eksperimentlar, bilish amallari.

**Ilmiy dalilning tavsifi va xossalari.** Ilmiy dalilning strukturasi. Ilmiy dalillarni aniqlash usullari. Dalillarning ilmiy bilishdagi ahamiyati va imtiyozli dalillar.

**Ilmiy bilimning rivojlanishida fan dalillarini umumlashtirishning ahamiyati.** (Magistrlik disseratsiyasiga ilmiy dalillar yig'ish misolida asoslanadi).

## **9-mavzu. ILMIY MAKTAB: METOD VA ASOSIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR**

**Ilmiy maktab shakllanishining tarixi, umumiy belgilari va asosiy bosqichlari.** Ilmiy maktablarning tiplari. Ilmiy maktablarning shakllari, paradigmalar va lokal darajalari. Ilmiy maktablarning klassifikatsiyasi. Innovatsion ilmiy maktablar.

**Metod, metodologiya, metodika tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi.** Metodlarning tasnifi: fan metodlari. Ekologik tadqiqotlarda analiz va sintez, tizimli yondashuv metodi. Xodisalar aloqalarini aniqlashda matematika metodi. Ilmiy bilishda algoritm metodi. Fanlararo tadqiqot metodlarida tizimli yondashuv; xususiy ilmiy metodlarda reduksiyaning o'rni; empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari; tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlari; falsafa metodlari; ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari.

**Hozirgi zamon metodologiyasi.** Evristika - yangi metodologik tamoyil. Ilmiy bilish metodlarining integratsiyasi. Metodologik tamoyillarning klassifikatsiyasi. Tabiiy ob'ektlarning xossalari: sub'ektiv yaxlit xossalar, yaxlit xossalar, metayaxlit xossalar.

## **10-mavzu. ILMIY TADQIQOTNI RASMIYLASHTIRISH VA NATIJALARNI JORIY QILINISHI**

**Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish: ijtimoiy mohiyati va shakllari.** Rasmiylashtirilgan ilmiy ish qadriyat va intellektual mulk sifatida.

**Ilmiy ish matni, matyerialni bayon qilish qoidalari.** Ilmiy matn kompozitsiyasi, undagi mantiqiy va strukturaviy izchillik. Matnni yozishda uslubiyat, orfografik va punktuatsion qoidalarga qat'iy amal qilish. Ilmiy ishning bibliografik apparati. Adabiyotni qayd qilish va ixtibos qoidalari. Annotatsiya va referat tuzish. Avtoreferat yozish. Qo'l yozmani tahrir qilish.

**Dissertatsiya tushunchasi. Dissertatsion tadqiqotning metodologik, nazariy, ijodiy va amaliy jihatlari.** Dissertatsiya oldiga qo'yilgan vazifa va talablar. Magistrlik dissertatsiyasi tushunchasi. Magistrlik dissertatsiyasini tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasining tayyorlash tamoyillari va qoidalari.

**Dissertatsion tadqiqotning nazariy va amaliy samaradorligi, uni rasmiylashtirish qoidalari.** Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi.

## 11-mavzu. TUSHUNISH VA TUSHUNTIRISH ILMIY FAOLIYATNING MEZONI

Ilmiy faoliyatni tashkil etishda mavzuning mohiyatini tushunishning ahamiyati. Tushunishning turlari, tiplari va darajalari. Tushunishning ikki muhim jihati: sikllilik va germeneytik doira tamoyili. Ilmiy tadqiqotda matn ma'nosini tushunish va undan foydalanishning ahamiyati. Yozma va og'zaki matn ma'nosini tushunish ilmiy tadqiqotning muhim sharti. Matnning yashirin ma'nosini tushunishning ilmiy tadqiqot uchun zarurati.

Simvol tushunchasining mohiyati. Simvollarni to'g'ri belgilash va ularda ma'noni ifodalashning zarurati. Simvolning shakllari. Semiotika - belgili tizimlarni o'rganuvchi fan. Ilmiy tadqiqotda semiotik belgilardan foydalanish malakalarini shakllantirishning ahamiyati. Dialog og'zaki matnning tushunish vositasi. Dialogning turlari.

Ilmiy ma'ruzaning ma'nosini tushunishda dialogning o'rni. Til tushunish vositasi. Til amaliy ong sifatida ob'ektiv bilim (ob'ekt-til) va sub'ektiv bilim (sub'ekt-til)ni yaxlit bir butunga birlashtiruvchi omil. Fan tilining bir biridan farqi va ularni tushunishda oqilona yondashuv. Ilmiy tushuntirishning tavsiflash bilan o'zaro aloqasi. Ilmiy tushuntirishning elementlari. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati. Tushunish ma'naviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi.

## 12 - mavzu. ILMIY TADQIQOTDA AXBOROT IZLASH VA QAYTA ISHLASH

Axborot tushunchasi. Axborot va bilish, ularni nisbati muammosi. Axborot tizimlari, texnologiyasi va vositalari. Informatika, uning predmeti va funksiyalari.

Axborotni izlash metodologik muammo sifatida. Axborotni izlashni uslubiy qoidalari. Axborot mahsuloti va manbalari. Birlamchi va ikkilamchi axborot manbalari.

Axborot va fakt. Fakt tushunchasi. Ilmiy faktning sifat belgilari. Faktning to'plash va qayta ishlash. Faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish.

Ilmiy adabiyot bilan ishlash. Ilmiy adabiyotni o'qish texnologiyasi. Adabiyotda berilgan g'oya va kontseptsiyalarni izchilligi, isbot mantig'i va asoslanganligiga e'tibor berish.

## 13 - mavzu. RASIONALLIK VA ILMIY TADQIQOT MUTANOSIBLIGI

Ilmiy rasionallikning shakllanish tarixi. Rasionallikning mazmuni. Rasionallik modellari: induktivistik, deduktivistik, evolyusionistik, to'rsimon, realistik, paradigmal modellar, fanni tematik tahlil qilish va ilmiy tadqiqotga aosslanuvchi modellar. Ilmiy rasionallikning klassik va noklassik qiyofasi. Yangi rasionallikning cheksizligi. Ochiq va yopiq rasionallik. Ong strukturasi rasionallik. Ong tabiatini tushuntirishga oid yondashuvlar. Rasionallik va ilmiy bilimning ijtimoiy - nazariy asoslari. Ilmiy bilim qoida va xulosalarining rasionalligi. Ilmiy tadqiqot faoliyatida bilimning rasionallashuvi

Ilmiy tadqiqot faoliyatida rasionallik va irrasionallik. Inson bilimi hissiy va rasionallik faoliyat birligi mahsulati. Rasionallik faoliyat fikr shakllari bilan

aniq belgilangan andozaga muvofiq ish ko'rish shakli. Hayotning rasionallashuvda bilimning roli. Simvollik interaksionizm konsepsiyasi. Yo'l tanlashning rasionalligi. Determinizm – muxandislik - texnikaviy yondashuv doirasida qo'llaniladigan nazariy mavhumlashtirishning pirovard natijasi.

#### **14- mavzu. OLIMNING PROFESSIONALLASHUVI VA IJTIMOIIY MAS'ULIYATI.**

**Ilmiy tadqiqotda erkinlik va ijtimoiy nazorat.** Ilmiy hamjamiyatda fanning erkinligi tamoyili. Mavzuni tanlash erkinligi va uning ijtimoiy nazorati.

**Ilmiy faoliyatni ijtimoiy nazorat qilish vositalari:** ekspertlar kengashi, kollegial tashkilotlar, maslahat kengashlari. (Ilmiy loyihalar mazmuniga baho beruvchi ekspert kengashlari). Oliy attestasiya komissiyasi olim ilmiy faoliyatiga baho beruvchi tashkilot.

**Neytralizm va ijtimoiy mas'uliyat.** Fandagi neytralizm - din, axloq, siyosatga aralashmaslikning ifodasi. Neytralizmning ikki asosiy tendensiyasi. Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi va uning zaruriyati. Olimlar jamoasining tasnifi: super intellektual elita, intellektual elita, ilm ahli tushunchalarini bir biridan farqlovchi asosiy belgilar.

**O'zbekistonning intellektual elitasi va ularga ishlash uchun yaratilgan sharoitlar.** O'zbekistonda ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati. Elitar ta'lim va elitar pedagogika. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini tashkil etish, fikr almashish vositalarining tasnifi: kongress, forum, simpozium, konferensiya, seminarlarning bir biridan farqli jihatlari. Hozirgi zamon olimining portreti. Konsensusning shakllari va darajalari. Fanda xalqaro jamoatchilik bilan ishlashning ahamiyati. Mahorat darslarini tashkil etishning afzalliklari. (Barcha sohadagi ilmiy hamkorlikning tahlili).

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Tadqiqotchi faoliyati va unga qo'yiladigan malakaviy talablar
3. Ijod va ilmiy tadqiqot bilish faoliyatining mahsuli
4. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish jihatlari
5. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari va tiplari
6. Ilmiy tadqiqotning empiric darajasi, shakl va metodlari.
7. Ilmiy bilishning nazariy darajasi, uning o'ziga hos xususiyatlari, shakl va metodlari.
8. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyatning o'zaro ta'siri
9. Ilmiy tadqiqotda argumentatsiya va bahsni o'tkazish metodologiyasi.
10. Ilmiy maktab- metod va metodologik yondashuvlar.
11. Ilmiy tadqiqotni rasmiylashtirish va natijalarni joriy qilinishi
12. Ilmiy tadqiqotlarni prognozlashtirish. Ilmiy bashorat uning ilmiy tadqiqotdagi o'rni.
13. Ilmiy tadqiqotda axborot izlash va qayta ishlash
14. Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik

15. Olimning professionallashuvi va ijtimoiy mas'uliyati.

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

##### Mustaqil ta'lim va mustaqil ish uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti .
2. O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarining tashkil etilishi
3. Ilmiy tadqiqotning zamonaviy metodlari
4. Ilmiy tadqiqotlarning turlari (klassifikatsiyalanishi), strukturasi va bosqichlari
5. Fanda ijod qilish
6. Ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari. Fundamental tadqiqotlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
7. Ilmiy bilishning nazariy darajasi, uning o'ziga hos xususiyatlari, shakl va metodlari.
8. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish, suxbat, so'rov, test, eksperiment-empirik tadqiqot metodlari sifatida
9. Eksperimental tadqiqotlar turlari va ularni bosqichlari
10. Haqiqat va uning ilmiy bilishdagi o'rni
11. Tasvirlash, tavsiflash, tushunish va tushutirishning ilmiy tadqiqotdagi o'rni
12. Intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibligi
13. Intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibligi
14. Intellektual mulk huquqi: innovasiya va novasiyalar, kashfiyot va ixtiro
15. Ixtironing patentboplik shartlari, obykti va talabnom
16. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini joriy etish, ularning samaradorlik mezonlari .
17. Novatsiya va innovatsiyalar hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarining tarkibiy qismi.
18. Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash
19. Ilmiy tadqiqot mavzularini asoslash metodologiyasi
20. Mavzu( muammo)ning ishlanganlik (o'rganilganlik) darajasini aniqlash

Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. (Mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish fanning xususiyatidan kelib chiqib kafedrada ishlab chiqiladi)

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asosiari, ilmiy tadqiqot olib borishning zaruriy shartlari, ilmiy izlanishga hos asosiy tushunchalar, ilmiy tadqiqot olib borishning mantiqiy tuzilmasi, ilmiy bilishda umumiy va xususiy metodlar, mavzuni tanlash bosqichlari, tadqiqot rejasini tuzish, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish, fanning o'ziga xos hususiyatlari, ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari xaqida tasavvurga ega bo'lish, tadqiqot struktirasini bilishi;

tadqiqot jarayonini tavsivlash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empiric va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotning metodologik tomoyillari, ilmiy loyixalarini tuzish, ilmiy izlanishlarning yo'nalishlari haqidagi bilim ko'nikmalariga ega bo'lishi;

bilimning kostruktiv xarakteri, ilmiy faoliyat ma'sulining amaliy a'amiyatini anglash, ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish usullari va talablarini bilish, havola berish usullari, mavzuni yoritish uchun matndan faktik misollar tanlash, faktik materiallarning miqdorini belgilash, qo'lyozmani ta'rir qilish, ilmiy ishni ilmiy uslubda ravon va savodli yozish malakalariga ega bo'lishi bo'lishi kerak.

#### **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**

ma'ruzalar;

seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);

interfaol keys-stadilar;

guruhlarda ishlash;

taqdimotlarni qilish;

individual loyihalar;

jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

#### **VIII. Asosiy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. -464 b.
2. Shermuxamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.-Toshkent: Noshir, 2020. - 480 b.
3. Allayarova S.N. Talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'naltirishning dolzarb masalalari. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
4. Alesmasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot, metodika, ijodiyot.- - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar akademiyasi, 2015. - 120 b.
5. Новиков А.М. Методология научного исследования: учеб.-метод. пособие / А.М.Новиков, Д.А.Новиков. - 4-е изд. - М.: URSS: ЛЕНАНД, 2017. - 270 с.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2019, 591 b
7. Иззетова Э, Пўлатова Д.А., Философия и методология науки. Учебное пособие. Т., 2013.
8. Valieva S., Tulenova K.J. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Т., 2020.
9. Дурнев Р. А. О характерных ошибках соискателей: ввести с научного фронта (в 2-х частях) / Р. А. Дурнев, Е. М. Мешэрязков // Технологии гражданской безопасности. 2013 №2 (36). С. 26-30.
10. Коньюков А.Е. Основы научных исследований. Общая теория эксперимента.-К : "Освита", 2012
11. Карпов А. Практическое пособие для аспирантов и соискателей: (как поступить в аспирантуру, как написать диссертацию, автореферат, научную статью, как подготовить к защите и защитить диссертацию) 2-е издание. Москва: Научные технологии. 2014. 265 с.
12. Saifnazarov i., Karimov T., Nikitchenko .V. Ilmiy ijod metodologiyasi.- Toshkent:TDIU, 2004
13. Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, disput)ning mantiqiy-epistemik tahlili (monografiya).-Termiz: «Surxon-nashr»,2020. -148б.

### Axborot manbalari:

14. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.
15. <http://www.lex.uz>– O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.
16. <http://library.ziyonet.uz/ru/>
17. <http://www.samdu.uz/uzk/ixtisoslashgankengashlar>

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix fanlari kafedrasidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

**Fan (modul) uchun ma'sul:**

M.X.Fayzullayeva - Tisu, "Tarix fanlari" kafedrasida dotsenti (DSc).

**Taqrizchilar:**

Mirzayev J.Z. – Termiz davlat universitetining "Jahon tarixi" kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Xo'lmuminov X.E. – Termiz davlat universitetining "Jahon tarixi" kafedrasida dotsenti, t.f.d.